

№ S/2 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайтов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоэвна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлифи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 - ТАРИХ ФАНЛАРИ

Рахманова Мавлуда Эркин қизи

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ССРГА ХАЛҚАРНИ МАЖБУРИЙ КЎЧИРИШ
СИЁСАТИ ТАРИХШУНОСЛИГИ 9-16

Икромжонов Акмалжон Махмуджонович

ФАХРУДДИН ЎЭЖАНДИЙ ЯШАГАН ДАВРДА МОВАРОУННАҲР ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ
ВАЗИЯТ ВА ИЛМ ФАН РИВОЖИ 17-25

Холдоров Зоҳиджон Валижон ўғли

ТУРКИСТОН ЛЕГИОННИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ТАРИХИДАН 26-34

Хамирова Дилфуза Улуғбек қизи

НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЖОДКОРЛАР НИГОХИДА 34-41

Nag'ashboyev Qazbek Bozorboy uli

SULTON RAXMONOV – SAYYORANING ENG KUCHLI ODAMI 42-49

Махмудов Махмуд Авазович

ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ ШАРОИТИДА ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИНИ ИЖТИМОЙ
ТАБАҚАЛАШУВИ 50-58

Mamatov Bektosh Tolibjon o`g`li

YALANGTO`SH BAHODIR VA ASHTARXONIY HUKMDORLAR 59-66

08.00.00 - ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Muminova Elnoraxon Abdulkarimovna

“YASHIL” IQTISODIYOTGA O’TISHNING XORIJY TAJRIBALARI 66-75

Файзуллоев Мирсаид Шухратович

СОЛИҚ НАЗОРАТИ ТИЗИМИДА КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ
АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ 76-85

Кахарова Нилюфар Эркинжоновна

OKR МЕТОДОЛОГИЯСИ ХАҶИДА ТУШУНЧА, МАҶСАДИ, АФЗАЛЛИГИ, ЖАРАЁНДАН
КУТИЛАДИГАН НАТИЖАЛАР 86-91

Насруллоев Ҳаётжон Хабибуллоевич

СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИГА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ СОЛИҚ БАЗАСИНИ КЕНГАЙТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 92-99

Raxmonov Mirvoxid Rajabovich

HUDUDNING INVESTISION JOZIBADORLIGI OMILLARINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 100-107

Насруллоев Ҳикматулло Хабибуллоевич

ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШ УЧУН ЗАМОНАВИЙ РАҶАМЛИ
ЕЧИМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ 108-115

Тоштемиров Шоҳруҳ Тошпўлатович

ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ КАПИТАЛ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ АҲАМИЯТИ 116-120

Насимов Равшанжон Азимович	
МАМЛАКАТИМИЗДА СОЛИҚ ЮКИНИНГ СОЛИҚ ТЎЛОВЧИЛАР ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИРИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	121-130
Nabieva Nilufar Muratovna	
MARKETING AUDIT AND ITS IMPACT ON IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF THE COMPANY.....	131-139
Отамуродов Нуриддин Нажмиддинович	
КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕС ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ COVID-19 ИНҚИРОЗ ДАВРИДА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СОЛИҚҚА ТОРТИШ МАСАЛАЛАРИ	140-148
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li	
TO'G'RIDAN – TO'G'RI XORIJIY INVESTITISIYALARNI JALB QILISHDA MAMLAKAT XATARLARINI KAMAYTIRISH.....	149-155
Yusupov Farruxbek Farxodovich	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA XİZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	156-162
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna	
KİCHIK BİZNES KORXONALARIDA MOLİYAVİY REJALASHTIRISH VA BYUDJETLASHTIRISHNING XUSUSİYATLARI	163-172
Зиёдинова Нилуфар Зариф қизи	
ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ЎРНИ	173-179
Насимджанов Юнусжон Зоҳидович	
МАМЛАКАТИМИЗ ҲУДУДЛАРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАР ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ ЕР СОЛИГИ МАЪМУРЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	180-187
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
Ҳакимов Акмалжон Мирзаганиевич	
ЦИВИЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ГНОСЕОЛОГИК МОҲИЯТИ	188-192
Холмирзаев Нодиржон Низомжонович	
УРБАНИЗАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	193-198
Boboqulov Abror Abdug'ani o'g'li	
"OPEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE GPT" TIL MODELINING FALSAFIY TAHLILI	199-204
Ялгашев Бунёд Махмудович	
САМАРҚАНД ВОҲАСИ ЭТНИК ГУРУХЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА УЛАРНИГ ЯШАШ ТАРЗИ	205-213
Safarov Maqsudali	
ABU BAKR AR-ROZIYNING "TIBBI RUHONIY" (RUH TIBBIYOTI) ASARIDA G'AZABNI VA INSONNING O'Z KAMCHILLIKLARINI BARTARAF QILISH HAQIDA MULOHAZALAR	214-219
Сохибова Лола Жонибоевна	
ШАХС МАДАНИЙ САВИЯСИ – МАДАНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ИФОДАСИ	220-224

Адашова Махсума Махмудбоевна	
ИМОМ АБУ МАНСУР МОТУРИДИЙ ВА МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ – ДУНЁ ОЛИМЛАРИ НИГОХИДА.....	225-231
Mukhammediyarova Akhmaral	
PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF NOOSPHERIC DEVELOPMENT IN THE ECOLOGICAL AND GLOBAL SECURITY SYSTEM	232-239
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Tilovov Ozod, Isoqulova Gulxon	
FRAZEOLGIK BIRLIKLARDA SONLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING RAMZIY MA'NOLARI.....	240-245
Surmilova Elena	
GENDER STUDIES IN LINGUISTICS AND THEIR APPLICATION IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	246-252
Олимова Диляфрузхон Бахтиёржон қизи	
ТИЛШУНОСЛИКДА БАҲО КАТЕГОРИЯСИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	253-257
Djurayev Dilshod Mamadiyarovich, Radjabova Madinabonu Raimovna	
XITOY TILI GRAMMATIKASIDAGI “NATIJA TO'LIQLOVCHISI (结果补语).....	258-262
Azzamov Yusufjon Radjaboy o'g'li, Jo'rayeva Xayriniso Shavkat qizi	
EKOJURNALISTIKANING QO'LLANILISH KATEGORIYALARI	263-268
Fillipova Olga Igorevna	
CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES AS A CATEGORY OF REDUNDANCY.....	269-278
Ismoilova Dilorom Rustamjon kizi	
LEXICAL UNITS OF THE SEMANTIC FIELD “MURDER”.....	279-285
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
Ильясов Баходир Ильясович	
ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEXANIZMI VA UNING RIVOJLANISH YO'LLARI	286-293
Чориева Хуршидабону Хуррам қизи	
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИНГ ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ИШТИРОКИ	294-299
Хаётов Анвар Хусанович	
ХАЛҚАРО ОЛИМПИЯ ҚЎМИТАСИННИНГ МУХТОР МАҚОМИ ВА ТУРЛИ ҲУҚУҚ СУБЪЕКТЛАРИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИ	300-307
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
РЕЧЕВАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	308-315

Tursunova Aziza Xoshimovna

WEB TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BILIMNI NAZORAT QILUVCHI DIDAKTIK VOSITALAR
YARATISH USULLARI 316-321

Oblanazarov Faxriddin Asadovich

FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA'LIM VA MASHG'ULOTNING ASOSIY QONUN-
QOIDALARINI AMALGA OSHIRISH 322-329

Isroilova Dildora Muxtarovna, Solijonova Dildora Ulugbekovna

IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR TARJIMASINI O'QITISHDA LINGVOMADANIY OMILLARNING
O'RNI 330-335

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li

MAKTAB O'QUVCHILARI HUQUQIY TA'LIM – TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA
OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV ISHLARI NATIJALARINING PEDAGOGIK TAHLILI 336-342

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI 343-350

08.00.00-Иқтисодиёт фанлари

Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li
TMI, "Baholash ishi va investitsiyalar"
kafedrasi dotsenti v.b., PhD

TO'G'RIDAN – TO'G'RI XORIJIY INVESTITISIYALARNI JALB QILISHDA MAMLAKAT XATARLARINI KAMAYTIRISH

Annotatsiya. Maqolada to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitisiyalarni jalb qilishda mamlakat xatarlarini kamaytirish yo'llari ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan xorijiy investorlarni KTIKA (ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlovchi agentlik) tomonidan investorlar va kreditorlarga kafolat berish yo'llari o'r ganilgan. Jumladan boshqa xalqaro tashkilotlar (Maxsus chet el investitsiya kompaniyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining) loyihalar bo'yicha xatarlarni nafaqat iqtisodiy mezonlar balki ijtimoiy-ekologik mezonlar asosida baholash yo'llari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: investitisiya, to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitisiya, YaIM, mamlakat xatarlari, BMT, IHTT, MCHEIK, KTIKA.

Хошимов Жаҳонгир Равшанбек ўғли
ТФИ, и.о.доцента кафедры
«Оценочное дело и инвестиции», PhD

ПРЯМЫЕ – СНИЖЕНИЕ СТРАНОВЫХ РИСКОВ ПРИ ПРИВЛЕЧЕНИИ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ

Аннотация. В статье раскрываются пути снижения рисков страны при привлечении прямых иностранных инвестиций. Кроме того, международными организациями были изучены способы предоставления гарантий иностранным инвесторам КТИКА (многостороннее агентство по гарантированию инвестиций) перед инвесторами и кредиторами. Среди других международных организаций (Специальная компания иностранных инвестиций, Организация экономического сотрудничества и развития) исследованы способы оценки проектных рисков на основе не только экономических, но и социально-экологических критериев.

Ключевые слова: инвестиции, прямые иностранные инвестиции, ВВП, страновые риски, БМТ, ИХТТ, МЧЭИК, КТИКА.

Khoshimov Jakhongir Ravshanbek ugli
TFI "Evaluation and Investments" Department,
Associate Professor, PhD

DIRECT – REDUCTION OF COUNTRY RISKS IN ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT

Annotation. The article reveals ways to reduce the country's risks in attracting foreign direct investment. Also, ways of guaranteeing foreign investors by KTIKA (multilateral investment guarantee agency) to investors

and creditors have been studied by international organizations. Among other international organizations (Special Foreign Investment Company, Organization for Economic Cooperation and Development), ways of assessing project risks based not only on economic criteria, but also on socio-ecological criteria have been researched.

Keywords: investment, foreign direct investment, GDP, country risks, BMT, IHTT, MCHEIK, KTIKA.

DOI: <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI2Y2023N18>

Kirish

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlangan va rivojlanyotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida muhim ro'l o'ynaydi. So'nggi yillardagi ijobjiy tendensiyalarga qaramay mutaxasislarning fikricha, COVID-19 pandemiyasi ayrim mamlakatlarning global YalMning 4,3 foiziga kamayishiga olib kelishi mumkin [1]. Pandemiya tufayli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari hajmi kamayishi kutilmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida ekspertlar fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlar va tog' kon sanoatiga bo'lgan investitsiyalarga bo'lgan talabning pasayishi kuzatiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa deyarli 1,5 trillion dollardan 1 trillion dollargacha pasayishi kuzatilmoqda. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga qaram bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiyalar hajmi kamayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan bilan dunyo mamlakatlari milliy iqtisodiyotlarining o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi alohida chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdalar [2].

So'nggi yillarda barcha tarmoqlardagi dasturlarga muvofiq 31 milliard AQSH dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada o'tgan 5 yilda sanoat 1,4 barobar o'sdi, eksport hajmi esa 1,5 barobarga ko'paygani ko'rishimiz mumkin. Kelgusi 5 yilda iqtisodiyot barqaror o'sishi uchun sanoatni yana 1,5 barobarga oshirish, eksportni 30 milliard AQSH dollarga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun 120 milliard AQSH dollar sarmoya, jumladan, 70 milliard AQSH dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi pragnoz qilinmoqda. 2022 yilda esa ushbu ko'rsatkich 11 milliard AQSH dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirilib, yirik investorlar bilan manzilli ishslash bo'yicha kelgusi vazifalar belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

To'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat xatarlarini kamaytirish bo'yicha olimlar ta'riflarini ko'rib chiqamiz. Jumladan:

A.Sh.Bekmurodovning fikricha - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya investorga korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish va shu bilan korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish va shu bilan korxona asosiy kompaniyasining xorijiy sho'ba korxonasiga aylanadi [3].

A.B.Vaxobov esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya investorga iqtisodiy faoliyat ustidan ta'sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foiz ulishiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishga imkon beradigan investitsiyalardir deb ta'kidlaydi [4].

A.S.Azizov ilmiy ishida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo xo'jalik faoliyati ustidan

qisman yoki to'liq nazoratni ta'minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta'kidlaydi [5].

Maqolada muallif tomonidan ya'nayam mavzuga oydinlik kiritish maqsadida mamlakat xatari tushunchasiga xorijiy olimlarning fikrlarini ko'rib chiqish o'rini deb hisoblaymiz. D.Melderum – mamlakat tushunchasi bilan bog'liq quyidagi ta'rif e'tiborga molik ...barcha tijorat operatsiyalari xatar bilan ma'lum bir darajada bog'liq tijorat operatsiyalari halqaro chegaralar orqali amalga oshirilganda ular mahalliy operatsiyalarda mavjud bo'limgan qo'shimcha xatarlarga duch keladilar deb ta'kidlagan [6].

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'grisidagi qonuni ko'rib chiqadigan bo'lsak, qonunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tushunchasiga alohida ta'rif berilgan. to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari - chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari deyilgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada iqtisodiy voqeysalik jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullari - umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, induksiya, deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

O'zbekistonda qabul qilingan va xalqaro investitsiya qonunchilik normalariga asoslangan nomativ hujjatlar tahlil etildi. O'zbekistonning asosiy normativ huquqiy hujjatlari Investitsion kelishmovchiliklarni tartibga solish xalqaro markazi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasida ro'yxatga olingan xalqaro huquqiy normalarni investor tomonidan qo'llanishi huquqini tan oladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sohasiga xalqaro qonun hujjatlarining kiritilishi nafaqat O'zbekistonning investitsion jozibadorligini, balki umuman ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda muhim ijobjiy omil ekanligini ta'kidlandi. Ya'ni xalqaro investitsion bitimlarni ratifikatsiya etish va bajarish, xalqaro arbitrajni tan olish potensial xorijiy investorlarning iqtisodiyotimizga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlil va natijalar

Prezidentimiz Murojaatnomasida ham xorijiy konsultantlarni jalb qilib, maxsus va kichik sanoat zonalarini hududlarni rivojlantirish "drayveri"ga aylantirish, ularda yangidan yaratilayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish zarurligi ta'kidlandi. To'qimachilik, charm, qurilish materiallari, elektr texnikasi, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik kabi tarmoqlarda yangi mahsulotlarni o'zlashtirish, jahon brendlarini olib kelish orqali yangi bozorlarga chiqish muhimligi ta'kidlab o'tdilar.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'nomazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng muhim jihat – milliy iqtisodiyotning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvini kuchayib borishi natijasida xalqaro maydonda raqobatning keskinlashuvi va har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu kurashda milliy iqtisodiyotga ko'proq miqdorda xorijiy investitsiyalarni jalb etib iqtisodiyotni modernizatsiyalashni tashkil etgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda yuqori darajalarga erishib jahon raqobatida ustunlik qilmoqda.

O'z navbatida O'zbekiston Respublikasida ham xalqaro kapital bozoridan ko'proq miqdorda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishi uchun xalqaro moliya institutlariga a'zo bo'lib, rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanib investitsion

faoliyatni takomillashtirib bormoqda. Mamlakatimizda xalqaro normalarga muvofiqlashtirilgan investitsiya siyosati yirik miqdorda xorijiy investitsiyalarini kiritishda manfatdorlikni oshirish va investitsion muhitini borgan sari takomillashib borishi bilan xarakterlanadi. Mazkur investitsion siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad, aholi daromadlarini oshirish va turmush sifatini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimli tartibda amalga oshirishdan iborat. Mazkur islohotlar samaradorligi o'z navbatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar darajasiga bevosita bog'liq.

Iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb etish tizimini takomillashtirish va mamlakat xatarlarini kamaytirish quyidagi vazifalarni amaliy ijrosini ta'minlash o'rni deb hisoblaymiz:


— to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro va mintaqaviy standartlarga uyg'unlashtirish, xalqaro tajribada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish;

— innovatsion loyihalarni ishlab chiqayotgan va uni joriy etayotgan yuqori texnologik tarmoqlarga va korxonalariga qo'shimcha rag'bat va imtiyozlar berish;

— to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xususan ularning ishlab chiqarish zanjiriga kirish orqali mahalliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash shular jumlasidandir.

Bugungi kunda mamlakatimiz ayrim global indekslarda ishtirok etmoqda. Jumladan, Jahon banki tomonidan yuritiladigan Doing business reytingida O'zbekiston 2012 yilda 190 davlat ichida 166 o'rinda turgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirdorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz 2021 yilga kelib 64-o'ringacha ko'tarilishga muvaffaq bo'ldi, ya'ni 8 yil ichida 98 pog'onaga ko'tarilishga erishildi. Bu esa ya'nayam investorlar tomonidan mamlakatimizga investitsiya kiritish hajmi oshishiga olib keladi. Biroq, investorlar asosan xalqaro reytinglar tomonidan beriladigan ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi lekin hali ham mamlakatimiz xalqaro reyinglarga a'zo emas. Ushbu indekslarda Yangi O'zbekistonning ham faol ishtirok etishini ta'minlashimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan:

Global raqobatbardoshlik indeksi, Xorijiy investitsiyalarini jalb qilish indeksi, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun tartibga solish chekllovleri indeksi, Investitsiyalarga ishonch indeksi, Sanoatning raqobatbardoshligi indeksilarida ishtirok etishini ta'minlash zarur.



1-rasm. O'zbekistonning 2010-2021 yillarda Doing Businessdagi o'rni va mamlakatga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi [8]

Ammo ushbu o'sish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajm jihatidan mazkur ko'rsatkichga mutanosib oshishiga olib kelmadi. Bunga sabab yuqorida ko'rsatib o'tilgan indekslarda faol ishtirok etmiyotganligi sabab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi kamligini ko'rishimiz mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi muammolar mavjud bo'lib ayrimlariga to'xtalib o'tamiz: kredit foizlarining yuqoriligi va kreditlash tizimining yaxshi ishlamasligi; ishlab chiqarish infratuzilmasiga ularishning qiyinligi va qoloqligi; bino va yer ajratishning qiyinligi; mahsulot va xizmatlarning sertifikatlash, litsenziyalashdagi muammolar mavjudligi shular jumlasidandir.

Xorijiy investorlar faoliyatiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf qilish maqsadida bir qator vazifalar amaliy ijrosini ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: istiqbolli, dolzarb investitsion loyihalarni tezkor moliyalashtirish uchun viloyatda mahalliy budgetning orttirib bajarilgan qismidan ustav kapitali 5 mln AQSH dollaridan kam bo'limgan maxsus investitsion fond tashkil qilish lozim; muqobil variant sifatida (xorijiy investorlar tomonidan taklif qilingan) tijorat banklarini loyihalarda hamkor (sherik) sifatida ishtirok etishini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Xorijiy va milliy investorlarga berilgan kafolatlar, imtiyozlar va boshqa instrumentlar ko'rib chiqildi. Xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi, ularni jalb qilish tartibi va O'zbekiston Respublikasi investitsiya sohasidagi qonunchilikning moslashuvchanligi Vazirlar mahkamasi bilan tuzilgan bitimlarda keltirilgan qo'shimcha imtiyoz orqali ta'minlanadi. Investitsion jozibadorlikni oshirishda maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari alohida o'rni ham ahamiyatlidir.

Investitsiya xatarlarini boshqarish sohasidagi xalqaro institutlarning tajribasiga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, xorijiy investitsiyalarning kafolatlarini ta'minlash dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlariga to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro kapitalni muayyan kafolatlarsiz energetika, atrof muhitni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligi, yo'l va infratuzilma qurilish kabi muhim sohalarga investitsiyalashning imkonini bo'lmas edi.

Nodavlat va xalqaro notijorat tashkilotlari tomonidan kafolatlangan ko'plab investitsion loyihalar Afrika qit'asida iqtisodiyot tarmoqlarining muvaffaqiyatli rivojlanishiga olib keldi (hatto xarbiy to'qnashuvlar olib borilayotgan yuqori xatarli mamlakatlarda ham).

KTIKA (ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlovchi agentlik) investorlar va kreditorlarga kafolat berish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'p jihatdan yordam bermoqda. KTIKAning asosiy vazifasi – transmilliy kompaniyalarning mol-mulkini ekspropriatsiya yoki musodara qilish, urush va ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelish ehtimoli judda yuqori bo'lgan mamlakatlarga amalgalashirilayotgan investitsion loyihalarga kafolat berishdan iborat.

Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlovchi agentligi quyidagi vaziyatli holatlar bo'yicha zararlardan kafolatlarni beradi: adolatli arbitraj uchun imkoniyatlar yo'qligi, mahalliy valyutani erkin konvertirlangan valyuta ayriboshlashni ta'kidlash, sug'urta obyektiga bo'lan mulkiy huquqdan maxrum qilish, xarbiy to'qnashuvlar yoki fuqarolar tartibsizliklardan ko'rilgan zararlar [9].

2020 yilda qiymati 6 mlrd. AQSH dollari hajmidagi loyihalar sug'urtalandi va loyihalarning umumiyligi miqdori esa 22,6 mlrd. AQSH dollarni tashkil qildi. 2019 yilda ushbu ko'rsatkichlar, mos ravishda 5,55 mlrd va 23,3 mlrd. AQSH dollarni tashkil etdi. Ya'ni qiymati 1 AQSH dollarga teng xar bir sug'urtalangan aktiv uchun mamlakatlarga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi tahminan 4 AQSH dollarni tashkil etdi.

Xalqaro tashkilotlar (Maxsus chet el investitsiya kompaniyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlovchi agentlik) loyihalar bo'yicha xatarlarni nafaqat iqtisodiy mezonlar balki ijtimoiy-ekologik mezonlar asosida ham baholashga intilishlarini alohida ta'kidlash lozim. Investitsiya loyihalarining ijtimoiy va ekologik jihatdan baholanishi shuhbasiz mamlakatlarda hukumron bo'lgan doiralar bilan hamkorlikda olib keladi, chunki ijtimoiy va ekologik xarakterdagi investitsion loyihalar aynan shu turdagи muammolarni (mintaqa ishsizligi, aholini emlash muammosi, qishloq yerlarini suniy ravishda sug'orish, chiqindilarni zararsizlantirish, suv ta'minoti va boshqalarni) hal qilish uchun yo'naltiriladi.

Transchegaraviy investitsion xatarlarni ko'rib chiqishda investitsiyalar uchun kafolatlarni taqdim etish bo'yicha AQSH tajribasi alohida e'tiborga molikdir, chunki transchegeraviy xatarlarni boshqarish bo'yicha AQSH tajribasi o'ziga xos pragmatik maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maxsus chet el investitsiya kompaniyasi AQSH transchegaraviy investitsiya faoliyatni xatarlarini baholaydi o'z faoliyatini bir necha dasturlar orqali amalga oshiradi:

1. Ustav kapitaliga investitsiyalar;
2. Tuzilmaviy moliyalashtirish (50 mln. AQSH dollardan ortiq miqdorda);
3. Siyosiy xatarlarni sug'urtalash (asosan Afrika, Osiyo, Lotin Amerika, mamlakatlar);
4. Texnik qo'llab-quvvatlash (loyiha ko'rsatkichlarini Maxsus chet el investitsiya kompaniyasini talab darajasiga ko'tarish).

Xorijiy investitsiyalar uchun kafolatlar berilmasa, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal etish va boshqa loyihalarni amalga oshira olmasligi ta'kidlandi. Ushbu holat jahon amaliyoti xatarlari boshqarish, umuman olganda xatarlarni bosqichma-bosqich kamaytirish zarur.

To'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb qilishda mamlakat xatarlarini kamaytirish bo'yicha quyidagicha xulosalarga kelindi. Jumladan:

1. Investitsiya sohasida xalqaro qonunchilikning joriy etilishi nafaqat O'zbekistonning investitsion jozibadorligini balki umuman ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda ham muhim muhim ijobiy omil bo'lib xizmat etadi. Jumladan, Xalqaro investitsiyalar va transmilliy kompaniyalar to'g'risida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti deklaratsiyasining ratifikatsiyasi qilinishi va amalga oshirilishi bo'lajak Yevropa Ittifoqining investorlarning bizning iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada oshiradi.

2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi investitsiya sohasidagi nizolarni xalqaro arbitraj orqali hal etish huquqini ta'minlaydi. Bu esa muhim afzallik bo'lib, O'zbekiston yoki chet eldagi nizolarni hal etish uchun xorijiy investorlarga nizolarni adolatli hal etish imkoniyatini yaratib beradi.

Xulosa

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb qilishni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagicha taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

—kimyo va neft-gaz sanoati, mashinasozlik sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar, bank-sug'urta tashkilotlari ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish;

—to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb etish uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqilgan;

—investitsiya va biznes forumlar, taqdimotlar («Road Show») va marketing kampaniyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish;

—davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni tashkil etish lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Ёрматова Д.Ё. Экология ва атроф муҳитни ҳимоя қилиш. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2018. 109-123. Б.
3. Фалсафа қомусий луғат. – Т.ошкент: Шарқ, 2004. – 491 б.
4. <https://ecoportal.info/atmosfernoe-zagryaznenie-zemli/1>
5. <https://kun.uz/news/2022/10/17/toshkentda-chang-tozoni-kutilmoqda>
6. <https://nargis.uz/?p=200>
7. <https://oyina.uz/kiril/posts/1194>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**
Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).